

BO'LAJAK REJISSYORLARDA AKTYORLAR GURUHI BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak rejissyorlarning aktyorlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish masalasi ko'rib chiqilgan. Sahnaga qo'yilayotgan asarlarning g'oyasi va oliy maqsadini ochib beradigan, rejissyorning ishini amalga oshiradigan shaxs — aktyordir. Shu sababli rejissyor eng avvalo aktyorlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Maqolada bo'lajak rejissyorlarda shu ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Rejissyor, aktyor, spektakl, sahna, tomosha, bayram, rol, obraz, ko'nikma, badiiy asar, dramatik asar.

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ РАБОТЫ С АКТЕРСКОЙ ГРУППОЙ У БУДУЩИХ РЕЖИССЕРОВ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы формирования навыков работы будущих режиссеров с актерами. Актер является тем человеком, который раскрывает идею и высшую цель постановки, что позволяет реализовать работу режиссера. Поэтому от режиссера требуется умение работать с актерами. В статье приведены методические рекомендации по развитию этих навыков у будущих режиссеров.

Ключевые слова: Режиссер, актер, спектакль, сцена, шоу, праздник, роль, образ, навык, художественное произведение, драматическое произведение.

PRACTICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING SKILLS IN WORKING WITH A GROUP OF ACTORS IN FUTURE DIRECTORS

Annotation: This article discusses the issues of developing skills in future directors for working with actors. The actor is the person who reveals the idea and ultimate goal of the production, enabling the director's work to be realized. Therefore, the director must have the ability to work with actors. The article provides methodological recommendations for developing these skills in future directors.

Keywords: Director, actor, performance, stage, show, celebration, role, image, skill, artistic work, dramatic work.

Kirish. Rejissyorlik – bu faqat sahna asarini sahnalashtirish emas, balki ijodiy jamoani boshqarish, aktyorlarning ichki imkoniyatlarini ochish, ularning ijodiy salohiyatini maksimal darajada namoyon qilishga qaratilgan murakkab pedagogik va psixologik jarayondir. Ayniqsa, san'at oliygohlari va maktablarida tahsil olayotgan bo'lajak rejissyorlar aktyorlar guruhi bilan samarali ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim kasbiy zaruratdir.

Rejissyor dramaturgik matnni sahna tiliga tarjima qiluvchi badiiy rahnamo. Uning aktyorlar bilan ishlash uslubi Stanislavskiy, Brext, Meyerxold va boshqalarning ilmiy-amaliy izlanishlari asosida shakllanib kelgan. Har bir uslub aktyor bilan muloqot, topshiriq berish, improvizatsiya qilish va sahnalashtirishda turli metodikalarni talab qiladi[5.B.48.].

Har tomonlama sifatli, raqobatbardosh sahna asarlari vujudga kelishida rejissyorning o'rni beqiyosdir. Hoh teatr san'ati, hoh kino, hoh maydon tomoshasi bo'lsin, asosiy g'oya va maqsadni ochib beradigan, o'z ijodiy o'ylari orqali, sahnalashtirilayotgan asarning mazmun mohiyatini tomoshabinlarga yetkazib beradigan shaxs rejissyor hisoblanadi. Sahnalashtirish jarayonida rejissyorning funksiyasi nihoyatda katta. Chunki uning oldida juda katta mas'uliyatlar turadi.

212 Rejissyor nafaqat rejissyorlik qobiliyatiga, balki tashkilotchilik, pedagoglik, psixologik fikrlash qobiliyatlariga ham ega bo'lishi kerak. Agar rejissyorda manashu hislatlar mujassamlashmagan bo'lsa, u o'ylagan g'oyasini amalga oshira olmaydi. Sahnalashtirilayotgan asarning g'oyasi va oliy maqsadini tomoshabinga yetkazib bera olmaydi. [6.B.250.]

Asosiy qism. Rejissyor fikr yurituvchi sifatida o'zi qo'yayotgan tomoshaning mavzusi va g'oyasini yaxshi bilib, tomoshabinga va qatnashchilarga o'zi ilgari surgan g'oyasini va oliy maqsadini yetkazib bera olishi kerak va mana shu tomoshaning tarbiyaviy va axloqiy tomonlarini aniq ko'rsata bilishi lozim.

Rejissyor pedagog sifatida pedagogikaning xususiyatini yaxshi bilishi lozim, u o'z tomoshalari bilan kishilarni faqatgina dam olishlarini uyushtirmay, balki ularni o'qitadi, o'rgatadi va tarbiyalaydi. Rejissyor psixolog sifatida kishilarning psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Kishilarning kasbini, yoshini, qiziqishlarini hisobga olishi shart [3.B.6.].

Rejissyorning eng asosiy vazifalaridan biri ijodiy guruhni to'g'ri tanlash va ular bilan ishlay olish ko'nikmasidir. Rejissyor nazariy bilimlarni qanchalik puhta egallamasin, unda tashkilotchilik qobiliyati bo'lmasa, ijodiy guruhni bir g'oya va maqsad ostida birlashtirib ishlay olmasa, u no'noq rejissyor hisoblanadi.

Rejissyorning g'oyasi va maqsadini tomoshabinga yetkazib beradigan asosiy omil bu aktyorning mahorati hisoblanadi. Rejissyor tomonidan ilgari surilgan g'oya va maqsad aktyorning mahoratida namoyon bo'lmasa, u haqiqiy badiiy qiymatga ega bo'lmaydi. Ya'ni, agar aktyorlar ijod qilmasa, o'ylamasa va his qilmasa, ijodiy jihatdan passiv bo'lsa, rejissyorning bunday aktyor bilan har qancha ishlaganidan foyda yo'q. Ya'ni spektakl yaratish uchun material yo'q degani. Shuning uchun rejissyorning aktyor bilan ishlash masalalari ijodiy jarayonning eng muhimidir. Aktyorda ijodiy jarayonni uyg'otish, uning organik tabiatini doimiy, to'liq va mustaqil ijod qilishga chaqirish zarur. Rejissyor ro'lni talqin qilish, qanday o'ynashni ko'rsatish va aktyorga sahnada amalga oshiriladigan barcha narsalarni ochib berish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu uning asosiy burchidir. Bunday ko'nikmalar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Rejissyorning bu ko'nikmasi talabalik davridan shakllanib borishi kerak. Rejissyorlik kursida o'qiyotgan talabalar to'rt yillik o'qish mobaynida bir qancha mustaqil rejissyorlik ishlarini sahnalashtiradilar. Bular etyud, insenerovka, dramatik asardan parcha, bir pardali spektakl, mono spektakl, badiiy publisistik kompozitsiya, bayram va tomoshalar ko'rinishida bo'ladi.

Talaba rejissyor eng avvalo etyud bilan to'qnash keladi va ilk marotaba o'zining rejissyorlik etyudini sahnalashtiradi. Etyud hayotdan olingan bir ko'rinish bo'lib, dramaturgiyani barcha komponentlarini o'z ichiga oladi. Etyudlar ustida ishlashda (bir kishilik, juft, ommaviy etyudlar) talabalar oldida yangi murakkab vazifalar paydo bo'ladi. Bu jarayonda ijodning barcha elementlarigina emas, balki soha bo'yicha olingan ilk bilimlar mustahkamlanib, keyingi bosqich uchun asos bo'ladi.

Etyud o'z ichiga dramaturgiyaning asosiy komponentlarini oladi. Dramaturgiyaning asosiy komponentlariga voqea, qarama-qarshiliklar kiradi va ular kompozitsion tuzilishga ega bo'lishi kerak, bir so'z bilan aytganda, dramatik asar uchun kerakli bo'lgan barcha jihatlar etyudda mujassam bo'lishi kerak [2.B.321.].

Talaba o'zining rejissyorlik etyudi uchun mavzu tanlagandan so'ng etyud ssenariysini tayyorlaydi. Ssenariy tayyor bo'lgach, eng asosiy vazifa, ya'ni tanlangan etyudni ijro etadigan aktyorni tanlashdir. Bu esa rejissyorning aktyor bilan ishlash ko'nikmasi shakllanishidagi ilk qadam hisoblanadi. Talaba rejissyor tanlagan etyudining mavzusi va g'oyasidan kelib chiqib ijrochini, ya'ni aktyorni tanlaydi. Ishlash jarayonida etyudda ilgari surilgan fikr, mavzu va g'oya, hamda o'zining oliy maqsadini aktyorga tushuntira olishi kerak. Har bir rejissyor biror sahna asari yoki bayram tomoshasini sahnalashtirar ekan, sahnalashtirayotgan asari orqali biron bir g'oya va maqsadni ilgari suradi. Agar aktyorni ham manashu g'oya va maqsad sari yo'naltirib unga singdira olsa, aktyor bilan ishlash jarayoni bir muncha yengil kechadi.

Tahlil va natijalar. Ba'zida talaba rejissyorlar tanlagan aktyorlari bilan ijodiy ishini sahnalashtira olmaydi, ish boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Bu jarayonda aktyorda ham ishga bo'lgan qiziqish so'nadi. Rejissyor va aktyor o'rtasida turli ziddiyatlar vujudga kela boshlaydi.

Natijada rejissyor aktyorni ayblab uni almashtirishni boshlaydi. Aslida ayb aktyorda emas, rejissyorda bo'ladi. Chunki rejissyor aktyorni ijod qilishga unday olmagan, uning ijodiy qiziqishini uyg'ota olmagan hisoblanadi.

Rejissyorlik kursida o'qiyotgan talabalar ba'zida o'zi sahnalashtirayotgan ijodiy ishida o'zi rol o'ynashni hohlaydi. Bu albatta noto'g'ri hisoblanadi. Chunki rejissyor ijodiy jarayonni sahnadan tashqarida turib nazorat qilishi, sahnalashtirilayotgan ishning umumiy badiiy saviyasi haqida fikr yuritishi kerak. Rejissyor doimo aktyorni ijodiy qo'llab-quvvatlashi, uni sahnadagi bir buyum emas, balki tirik inson sifatida qabul qilishi, uning ruhiyati, dunyoqarashi, tafakkuri, ijodiy salohiyatidan kelib chiqib muomala qilishi kerak bo'ladi.

Yuqorida aytganimizdek, talaba rejissyor o'qish davrida o'zining ilk rejissyorlik ishini etyuddan boshlasa, keyingi bosqichlarda bu jarayon murakkablashib, badiiy asardan parchalar, dramatik parchalar ko'rinishida davom etadi. Bu jarayonlarda aktyorlar guruhi ham kengayib boradi. Etyudlarda bir-ikki nafar aktyor bilan ishlagan bo'lsa, keyingi bosqichlarda uch, besh nafar aktyorlar bilan ishlashni boshlaydi. Spektakllar ustida ishlaganda esa katta bir jamoa bilan ishlashi, hamda ularni yagona maqsad atrofida birlashtira olishi kerak bo'ladi. Shundagina rejissyor o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi.

Rejissyor faqat aktyorlar bilangina ishlamaydi, balki butun jamoa bilan ishlaydi, shuning uchun keyingi eng muhim vazifa – barcha aktyorlarning ijodiy natijalarini doimiy ravishda bir-biri bilan muvofiqlashtirishdir. Shunday qilib, natijada teatr san'atining g'oyaviy-badiiy jihatdan uyg'unlashgan butun asar hosil bo'lishi kerak. Bu murakkab vazifalarni barchasini rejissyor o'zining asosiy funksiyasi, ya'ni sahna harakatini ijodiy tashkil qilishni amalga oshirayotganda hal qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rejissyor aktyorlar bilan ishlaganda ularning tirik inson ekanligini, har birining ruhiyati, ijodiy salohiyati, dunyoqarashi va albatta mahoratini hisobga olgan holda yondashishi maqsadga muvofiqdir. Bu ko'nikmalar talabalik davridan shakllansa, keyinchalik professional teatr jamoalariga borganda ular bilan ishlash, teatr aktyorlarini o'z orqasidan ergashtirish bir muncha yengil bo'ladi.

Rejissyorlik o'ziga xos va nozik san'at, u aktyorlar bilan samarali ishlashni talab qiladi. Bo'lajak rejissyorlarda bu ko'nikmalarni shakllantirishda eng muhimi – o'zaro ishonch, muloqot va ijodiy yondoshuvni o'rnatishdir. Aktyorlar guruhi bilan ishlashda nafaqat nazariy bilimlar, balki insoniy fazilatlar ham muhim rol o'ynaydi. Rejissyorlarning bu ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning o'z ijodiy qarashlarini to'liq namoyish etish va san'atda yuqori natijalarga erishishi uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
3. Turg'unov B. Teatr pedagogikasining nazariy asoslari. Toshkent: San'at nashriyoti 2020 y.
4. Raxmonov Z. San'at psixologiyasi: Ijodkor shaxs va guruh munosabatlari. Toshkent: Ma'naviyat.2019 y.
5. Zelinskiy A.A. Rejissyorlik san'ati va aktyor bilan ishlash metodikasi. Moskva: Iskustvo. 2018 y.
6. Stanislavskiy, K. Aktyor san'ati asoslari. O'zbek tilidagi tarjima. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot 2021 y.
7. Grotovskiy, Y. Yaqin teatr: aktyor va rejissyor munosabatlari. London: Theatre Studies Press 2016 y.